

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 260 sahifa.
2026-yil, mart

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODEL I	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakhmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOB: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDA AHAMIYATI.....	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILY MEXANIZMLARI	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	
OCHIQLIK INDEKSI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING INSTITUTSIONAL TAHLILI	144
Dilshod Pulatov, Uchqun Abdug'aniyev	
DUNYO SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY HOLATI VA NATIJALARI TAHLILI	153
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	160
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI	164
Muxibova Guli Yarkinovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRINI BAHOLASH	168
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI: XALQARO TAJRIBA VA INSTITUSIONAL YONDASHUVLAR	173
Bafoyev Farrux Jo'raqulovich	
KORXONALARDA AI-DRIVEN "DECISION SUPPORT SYSTEMS" (DSS)NI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Mardanova Ra'no	
STRENGTHENING THE FINANCING OF FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN THROUGH BANK CREDIT	186
Baymuratova Zina Aqilbekovna, Ibadullaeva Asal Ulugbek qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	192
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
ATTRACTING INVESTMENTS FROM FINANCIAL MARKETS AND FACTORS INFLUENCING THE INCREASE OF THEIR ATTRACTIVENESS	196
Kholov Sherali Akhrorboyevich	
MARKAZIY OSIYODA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA ADOLATLI TAQSIMLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	200
Matkarimov Mansur	
XALQARO XIZMATLAR SAVDOSIDA TIBBIY TURIZMNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	206
Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI	213
Ibroximov Iloxomjon Shavkatjon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINI IQTISODIY FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	219
Tillayeva Barno Ramiziddinova	
NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI VA AUDITORLIK HISOBOTLARINING O'ZIGA XOSLIGI	224
Xolmirmayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	



ЦИФРОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ РЕИНТЕГРАЦИИ ВОЗВРАЩАЮЩИХСЯ ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ: МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ КЫРГЫЗСТАНА.....	230
Амантурова Дилбара Кыдыкбековна	
РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЛЕКСИКИ В ЯЗЫКОВОЙ ПОДГОТОВКЕ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ.....	237
Асрарова М.У.	
О СКОРИНГОВЫХ МЕТОДАХ ЭКСПРЕСС-АНАЛИЗА ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ УЗБЕКСКИХ ЭМИТЕНТОВ.....	242
Ирмухамедова Муслима Дилшодовна	
UY-JOY QURILISHIDA ESKROU MEXANIZMLARINI JORIY ETISH ORQALI INVESTITSION XAVFSIZLIK VA MOLIYAVIY SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH	247
Karimov Inomjon Ortikbaevich	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MASALALARI	254
Kamoliddinov Ilxomjon Muxammadjonovich, Kobilov Murod Vakkosovich	



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Kamoliddinov Ilhomjon Muxammadjonovich

University of business and science

Moliya kafedrası dotsenti (PhD)

E-mail: kamoliddinov.ilhomjon2@gmail.com

ORCID: 0009-0004-4393-0117

Kobilov Murod Vakkosovich

University of business and science

Iqtisodiyot kafedrası 1-kurs magistranti

kobilov.murod@gmail.com

ORCID: 0009-0009-2468-894X

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Hozirgi kunda ekologik barqarorlik hamda resurslardan oqilona foydalanish tamoyillari global iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Yevropa Ittifoqi tomonidan ilgari surilayotgan barqaror rivojlanish strategiyalari kichik biznes faoliyatida "yashil" innovatsiyalarni joriy etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Tadqiqotda yashil iqtisodiyot tamoyillarini kichik biznes faoliyatiga tatbiq etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, kichik biznes, tadbirkorlik, innovatsiyalar, samaradorlik, raqamli texnologiyalar.

Abstract. This article analyzes the issues of increasing the competitiveness of small business entities under the conditions of a green economy. Currently, the principles of environmental sustainability and rational use of resources are becoming one of the priority directions of global economic development. In particular, sustainable development strategies promoted by the United Nations and the European Union emphasize the need to introduce green innovations in small business activities. The study examines the opportunities to enhance economic efficiency and ensure sustainable development through the implementation of green economy principles in the activities of small business entities.

Keywords: green economy, small business, entrepreneurship, innovation, efficiency, digital technologies.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы повышения конкурентоспособности субъектов малого бизнеса в условиях «зеленой» экономики. В настоящее время принципы экологической устойчивости и рационального использования ресурсов становятся одним из приоритетных направлений глобального экономического развития. В частности, стратегии устойчивого развития, продвигаемые Организацией Объединённых Наций и Европейским Союзом, усиливают необходимость внедрения «зеленых» инноваций в деятельности малого бизнеса. В исследовании рассматриваются возможности повышения экономической эффективности и обеспечения устойчивого развития посредством внедрения принципов зеленой экономики в деятельность субъектов малого предпринимательства.

Ключевые слова: зеленая экономика, малый бизнес, предпринимательство, инновации, эффективность, цифровые технологии.



KIRISH

XXI asrda global iqtisodiy rivojlanish modeli tobora ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslanmoqda. 2015-yilda qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) dunyo mamlakatlarini “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasiga o'tishga undamoqda. Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish hamda ijtimoiy farovonlikni oshirishni nazarda tutuvchi iqtisodiy modeldir [1].

Kichik biznes subyektlari har qanday milliy iqtisodiyotning muhim harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yalpi ichki mahsulotning muhim qismini shakllantiradi hamda bandlikni ta'minlashda yetakchi o'rin tutadi. Shu bois yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshiruvchi omillarni aniqlash hamda ushbu jarayonni ta'minlovchi samarali mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy asoslari ingliz iqtisodchilari David Pearce, Anil Markandya va Edward Barbier tomonidan ishlab chiqilgan. Ular yashil iqtisodiyotni iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni ta'minlaydigan model sifatida talqin qiladilar. Olimlarning fikricha, “iqtisodiy o'sish ekologik resurslardan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bilan uyg'un holda olib borilgandagina barqaror rivojlanish ta'minlanadi” [2].

Yevropalik tadqiqotchi René Kemp ekologik innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, “eko-innovatsiyalar korxonalar uchun nafaqat ekologik samaradorlikni, balki iqtisodiy ustunlikni ham ta'minlaydi” [3]. Ushbu fikr kichik biznes faoliyatida ekologik texnologiyalarni joriy etish orqali yangi bozor segmentlarini egallash imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda ham iqtisodchi olimlar tomonidan yashil iqtisodiyot va tadbirkorlik rivoji masalalari keng o'rganilgan. Jumladan, iqtisodchi olimlar O. S. Kazakov, I. E. Kenjayev va Sh. Z. Muxitdinov yirik hamda kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda innovatsiyalar va modernizatsiya jarayonlarining muhimligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning eng moslashuvchan va innovatsion qismi hisoblanib, ular orqali zamonaviy ekologik texnologiyalarni joriy etish jarayoni nisbatan tezroq amalga oshiriladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A. A. Mamadaliyev kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalarini tadqiq etib, ushbu sohaning hududiy iqtisodiy o'sishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, “kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda tadbirkorlik muhitini yaxshilash hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi va korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradi” [4]. Muallifning ushbu qarashlari yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish hamda resurslardan samarali foydalanish jarayonlari bilan ham uzviy bog'liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, taqqoslash, guruhlash hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarida moddiy-texnika resurslarini boshqarish amaliyoti o'rganilib, innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi tahlil qilindi.

Tadqiqotda quyidagi uslubiy yondashuvlar asos qilib olindi: moddiy-texnika resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish, resurslarni boshqarishda raqamli texnologiyalar (ERP tizimlari, avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimlari)ning ta'sirini baholash hamda innovatsion boshqaruv usullarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash. Olingan ma'lumotlar asosida xizmat ko'rsatuvchi subyektlarda innovatsion yondashuvlarning samaradorligi umumlashtirildi.

Shuningdek, xalqaro tajribalar, jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida amalga oshirilayotgan yashil transformatsiya jarayonlari ham o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi bir qator muhim omillar orqali oshirilmoqda.

Avvalo, resurs samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Energiya va xomashyo resurslaridan samarali foydalanish ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishga xizmat qiladi. Masalan, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish elektr energiyasi xarajatlarini 20–30 % gacha qisqartirish imkonini beradi.

Shuningdek, innovatsion yashil texnologiyalarni joriy etish ham muhim omillardan biridir. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, jumladan, quyosh panellari va shamol generatorlaridan foydalanish korxonalar uchun uzoq muddatli iqtisodiy ustunlikni ta'minlaydi. Bu nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, balki korxonaning ekologik imijini ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ekologik sertifikatlash va brending masalalari ham muhim o'rin tutadi. "Yashil mahsulot" maqomiga ega bo'lish korxonalarning eksport salohiyatini oshirishga yordam beradi. Ayniqsa, ekologik standartlarga qat'iy rioya qilinadigan davlatlar bozoriga chiqishda bu muhim omil hisoblanadi [3].

Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari ham yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'plab davlatlarda yashil loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq imtiyozlari, subsidiyalar hamda grantlar ajratilmoqda. Bu kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy yukni kamaytiradi va investitsion jozibadorlikni oshiradi.

Bugungi kunda raqamlashtirish jarayonlari ham yashil boshqaruv tizimini rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida logistika, ishlab chiqarish hamda savdo jarayonlarini optimallashtirish ekologik izni kamaytirishga va umumiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

1-jadval. Iqtisodiyotda kichik biznes raqobatbardoshligi

№	Yashil iqtisodiyot omili	Amalga oshirish mexanizmi	Iqtisodiy natija	Raqobat ustunligi
1	Energiya samaradorligi	Energiya tejamkor uskunalar, LED tizimlar, avtomatlashtirish	Xarajatlar 15–30% kamayadi	Tannarx pasayadi, narx bo'yicha ustunlik
2	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari	Quyosh panellari, kichik shamol generatorlari	Uzoq muddatda energiya mustaqilligi	Barqaror ishlab chiqarish, imij oshishi
3	Chiqindilarni qayta ishlash	Qayta foydalanish, "nol chiqindi" modeli	Xomashyo tejaladi, qo'shimcha daromad	Ekologik brend shakllanadi
4	Ekologik sertifikatlash	ISO 14001, eko-yorliq tizimlari	Eksport imkoniyati kengayadi	Xalqaro bozorlarga kirish
5	Raqamlashtirish	Elektron hujjat aylanishi, onlayn savdo	Operatsion xarajatlar kamayadi	Bozor qamrovi kengayadi
6	Davlat qo'llab-quvvatlashi	Subsiyalar, imtiyozli kreditlar	Investitsion yuk kamayadi	Moliyaviy barqarorlik oshadi

Manba: www.stat.uz. sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ushbu jadval yashil iqtisodiyotning asosiy omillari hamda ularning kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligiga bevosita ta'sirini tizimli ravishda aks ettiradi.

Birinchidan, energiya samaradorligi korxona xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu ayniqsa energiya resurslariga bog'liq ishlab chiqarish tarmoqlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Xarajatlarning qisqarishi mahsulot tannarxini pasaytiradi va narx bo'yicha raqobat ustunligini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish uzoq muddatli istiqbolda energiya narxlarining o'zgaruvchanligiga bog'liqlikni kamaytiradi. Masalan, O'zbekiston sharoitida quyosh energiyasidan foydalanish katta salohiyatga ega bo'lib, kichik biznes subyektlari uchun barqaror energiya manbaini yaratadi.

Uchinchidan, chiqindilarni qayta ishlash tizimi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi. Qayta ishlangan xomashyodan foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi hamda korxonaning "yashil brend" imijini shakllantirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, ekologik sertifikatlash xalqaro bozorlarga chiqishda muhim vosita hisoblanadi. Xususan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida ekologik talablarning yuqori darajada bo'lishi sababli sertifikatlangan mahsulotlar eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, raqamlashtirish jarayoni qog'oz sarfini kamaytiradi hamda logistika va boshqaruv samaradorligini oshiradi. Bu esa ekologik izni kamaytirish bilan birga operatsion ustunlikni ham ta'minlaydi.

Oltinchidan, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari yashil transformatsiya jarayonini jadallashtiradi. Moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari kichik biznes subyektlarining investitsion imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ularning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi [6].

Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o'tish kichik biznes uchun ayrim muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Jumladan:

- boshlang'ich investitsiya xarajatlarning yuqoriligi;
- yashil texnologiyalar bo'yicha bilim va malakaning yetarli emasligi;
- moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi.



Biroq uzoq muddatli istiqbolda yashil transformatsiya kichik biznes uchun bir qator muhim ustunliklarni ta'minlaydi. Jumladan:

- bozor talablariga moslashuvchanlikning ortishi;
- xalqaro hamkorlik imkoniyatlarining kengayishi;
- barqaror va uzoq muddatli foyda olish imkoniyatlarining paydo bo'lishi.

Masalan, Yevropa Ittifoqining "Green Deal" siyosati doirasida ekologik talablar bosqichma-bosqich kuchaytirilmoqda. Bu esa eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik biznes subyektlarini yashil standartlarga moslashishga undamoqda.

O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligini oshirish hamda chiqindilarni qayta ishlash sohalarida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa kichik biznes subyektlari uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratmoqda.

1-jadval. Yashil iqtisodiyot omillarining kichik biznes raqobatbardoshligiga statistik ta'siri

№	Ko'rsatkich	Statistik ma'lumot	Manba (umumlashtirilgan)	Kichik biznesga ta'siri
1	Kichik biznesning YAIMdagi ulushi	50–60 % atrofida	Milliy statistika ma'lumotlari	Yashil transformatsiya umumiy iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi
2	Energiya tejamkor texnologiyalar joriy etilganda xarajat kamayishi	15–30 % gacha	Jahon banki tadqiqotlari	Tannarx pasayadi, foyda marjasi oshadi
3	Qayta tiklanuvchi energiyani global ulushi	~30 % (elektr ishlab chiqarishda)	BMT va xalqaro energetika hisobotlari	Yashil energiyaga o'tish uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi
4	Resurs samaradorligi oshganda ishlab chiqarish rentabelligi	10–20 % oshishi mumkin	Xalqaro ekologik iqtisodiy tadqiqotlar	Investitsion jozibadorlik kuchayadi
5	Ekologik sertifikatga ega korxonalarda eksport hajmi	20–40 % yuqori	Yevropa bozori talablari tahlili	Tashqi bozorda ustunlik paydo bo'ladi
6	Raqamlashtirish natijasida operatsion xarajatlari	10–25 % qisqaradi	Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari	Samaradorlik va tezkorlik oshadi

Manba: www.stat.uz sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalan, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko'prog'ini shakllantiradi. Shu sababli ushbu sektorni yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish makroiqtisodiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish natijasida korxona xarajatlari o'rtacha 15–30 % gacha kamayishi aniqlangan (Jahon banki tadqiqotlari asosida). Bu kichik biznes subyektlari uchun ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki ularning moliyaviy resurslari nisbatan cheklangan bo'ladi [8].

Global miqyosda qayta tiklanuvchi energiya ulushining 30 % ga yaqinlashgani yashil energetika bozorining kengayib borayotganini ko'rsatadi. Bu tendensiya kichik biznes subyektlari uchun yangi investitsiya va innovatsion yo'nalishlarni ochib beradi.

Shuningdek, ekologik sertifikatga ega korxonalarning eksport hajmi 20–40 % gacha yuqori bo'lishi mumkinligi aniqlangan. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi bozorida ekologik talablarning qat'iyligi kichik biznes subyektlarini yashil standartlarga moslashishga undaydi.

Raqamlashtirish jarayonlari esa operatsion xarajatlarni o'rtacha 10–25 % ga kamaytirishga xizmat qiladi. Bu ekologik samaradorlik bilan birga iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi.

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot omillari kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligiga uch asosiy yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi:

1. Xarajatlarni kamaytirish (energiya va resurs tejamkorligi);
2. Daromadlarni oshirish (eksport hajmi va brend qiymatining ortishi);
3. Barqarorlikni kuchaytirish (uzoq muddatli energiya va bozor barqarorligini ta'minlash).



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish quyidagi strategik yo'nalishlarni amalga oshirishni talab etadi:

- energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish;
- innovatsion va ekologik mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;
- davlat tomonidan moliyaviy hamda institutsional qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;
- xalqaro ekologik standartlarga moslashish;
- raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyot kichik biznes uchun nafaqat ekologik majburiyat, balki yangi raqobat ustunliklarini shakllantirish imkoniyatini ham yaratadi. Strategik yondashuv hamda tizimli qo'llab-quvvatlash orqali kichik biznes subyektlari barqaror rivojlanish jarayonining muhim ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pearce D., Markandya A., Barbier E. Blueprint for a Green Economy. – London: Earthscan Publications, 1989.
2. Kemp R., Pearson P. Measuring Eco-Innovation. – Maastricht, 2007.
3. Mamadaliyev A.A. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Namangan: Namangan muhandislik-texnologiya instituti nashriyoti, 2019.
4. Kazakov I. M. Effective Directions of Development of Entrepreneurship // Conference Zone. – 2022. – P. 129–133.
5. Kenjabayev A. T. Tadbirkorlik faoliyatini axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari: iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2005. – 39 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti. – <https://www.stat.uz>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100